KIMYO YÖNALIŞI TALABALARIDA INNOVATSION FAOLIYATGA QIZIQIŞ VA MOTIVATSION TAYYORGARLIK YÖNALIŞLARI

Maşaripov Azamat Tursinboyeviç
Urganç davlat pedagogika instituti
maşaripovazamat41@gmail.com
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.24181529

Annotatsiya. Mazkur tezisda bölajak kimyo öqituvçilarining innovatsion pedagogik faoliyatga motivatsiyasining mavjud holati psixologik-pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilingan. E.Desi va R.Rayanning öz-özini belgilaş nazariyasi, A.Banduraning öz-özini samaradorlik konsepsiyasi hamda K.Zamfir va A.A.Rean tomonidan işlab çiqilgan motivatsion komplekslar yondaşuvi asosida innovatsion faoliyat motivlari içki, taşqi ijobiy va taşqi salbiy motivlar guruhlariga ajratilib, ularning har birining pedagogik izlaniş barqarorligiga ta’siri asoslangan. Kimyo fanini öqitişning öziga xos xususiyatlari – laboratoriya tajribasi, virtual laboratoriya va raqamli simulyatsiyalardan foydalaniş zarurati – hisobga olingan holda motivatsiyaning şakllanişiga tösqinlik qiluvçi psixologik tösiqlar aniqlangan. Içki motivatsiyani rivojlantirişning avtonomiya, kompetentlik va aloqadorlik ehtiyojlarini qondirişga asoslangan psixologik-pedagogik şartlari taklif etilgan. Tezis natijalaridan pedagogika oliy ta’lim muassasalarida kimyo öqitiş metodikasi maşğulotlari va pedagogik amaliyotni taşkil etişda foydalaniş mumkin.

Kalit sözlar: innovatsion faoliyat, kasbiy motivatsiya, içki motivatsiya, bölajak kimyo öqituvçisi, motivatsion kompleks.

Ta’lim tizimini modernizatsiya qiliş şaroitida pedagog kadrlarning innovatsion faolligi ta’lim sifatini belgilovçi asosiy omillardan biriga aylanmoqda [1]. Kimyo öqituvçisi faoliyatida innovatsiyalar virtual laboratoriyalar, raqamli simulyatsiyalar, muammoli va loyihaviy tajribalar kabi şakllarda namoyon böladi. Biroq yangi metod va vositalarni özlaştiriş faqat bilim va könikmalarga emas, balki şaxsning bunday faoliyatga içki intilişiga ham boğliq. E.Desi va R.Rayanning öz-özini belgilaş nazariyasiga köra, izlanuvçan va ijodiy faoliyat avvalo içki motivatsiya bilan quvvatlanadi, taşqi nazorat va majburlaş esa uni susaytiradi [2; 3]. E.P.Ilin motivatsiyani faoliyatni boşlaş, yönaltiriş va qöllab-quvvatlaş jarayoni sifatida tavsiflaydi [5], A.K.Markova esa kasbiy motivatsiyani pedagog professionalizmining etakçi omili deb hisoblaydi [6]. Şu bois bölajak kimyo öqituvçilarining innovatsion faoliyatga motivatsiyasini örganiş dolzarb vazifadir.

Ilmiy manbalar tahlili bölajak kimyo öqituvçisining innovatsion faoliyatga motivatsiyasini uç guruhga ajratib örganiş maqsadga muvofiq ekanini körsatadi. Birinçi guruhni içki motivlar – yangi metodni izlaş va sinab körişdan qoniqiş, kasbiy ösişga intiliş, kimyoni qiziqarli va tuşunarli öqitiş istagi taşkil etadi. Aynan şu motivlar barqaror va taşabbuskor pedagogik izlanişning manbai hisoblanadi. Ikkinçi guruhga taşqi ijobiy motivlar – yuqori baho, rağbat, tengdoşlar va öqituvçi e’tirofi kiradi; ular innovatsion faoliyatni boşlab berişi mumkin, biroq rağbat yöqolişi bilan faoliyat ham susayadi. Uçinçi guruhni taşqi salbiy motivlar – talab, nazorat va tanqiddan qoçiş istagi taşkil etib, ular innovatsiyani formal va majburiy xarakterga keltiradi. K.Zamfir va A.A.Rean yondaşuviga köra, motivatsiyaning optimal holati içki motivlar taşqi ijobiy, taşqi ijobiy motivlar esa taşqi salbiy motivlardan ustun bölgan kompleks bilan tavsiflanadi [7].

Bölajak kimyo öqituvçilarining innovatsion faoliyatga motivatsiyasi şakllanişiga bir qator psixologik tösiqlar ta’sir körsatadi. Ular orasida laboratoriya tajribasini yangi şaklda taşkil etişda xatolik qilişdan

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

qörqiş, öz imkoniyatlariga işonçning etarli emasligi, öquv faoliyatining asosan baholaşga yönaltirilganligi hamda innovatsion metodni tanlaşda mustaqillik imkoniyatining çeklanganligini alohida körsatiş mumkin. Mazkur tösiqlar öz-özini belgilaş nazariyasidagi avtonomiya, kompetentlik va aloqadorlik ehtiyojlarining etarli darajada qondirilmasligi bilan bevosita boğliq [2; 3]. Xatolik qilişdan qörqiş esa A.Bandura ta’kidlagan öz-özini samaradorlik muammosini aks ettiradi: öz imkoniyatiga işonmagan şaxs yangi va murakkab vazifalardan qoçib, an’anaviy şakllarni afzal köradi [4].

A.V.Xutorskoy ta’kidlaganidek, innovatsion faoliyatga tayyorlik pedagogik yangiliklarni mustaqil izlaş va sinab köriş tajribasi orqali şakllanadi [8]. Şu bois içki motivatsiyani rivojlantiriş uçun talabaga innovatsion metodni tanlaş erkinligini beriş, muvaffaqiyat tajribasini bosqiçma-bosqiç ta’minlaş va tengdoşlar bilan hamkorlikdagi izlanişni taşkil etiş zarur. M.G.Davletşin [9] va N.A.Muslimov [10] işlarida asoslangan pedagog şaxsini rivojlantirişning psixologik-pedagogik şartlari ham bu borada muhim nazariy tayanç bölib xizmat qiladi.

Bölajak kimyo öqituvçilarining innovatsion faoliyatga motivatsiyasi içki, taşqi ijobiy va taşqi salbiy motivlar nisbati bilan belgilanadi. Uning mavjud holatiga xatolikdan qörqiş, öz-özini samaradorlikning pastligi va avtonomiyaning çeklanganligi salbiy ta’sir körsatadi. Içki motivatsiyani rivojlantiriş uçun kimyo öqitiş metodikasi maşğulotlarida tanlov erkinligi beriladigan loyihaviy topşiriqlar, bosqiçma-bosqiç murakkablaşuvçi mikrodarslar va tengdoşlar bilan hamkorlikdagi pedagogik izlanişlarni taşkil etiş tavsiya etiladi. Bu esa bölajak kimyo öqituvçilarida innovatsion-pedagogik kompetentlikning barqaror motivatsion asosini şakllantirişga xizmat qiladi.

Olib borilgan tahlil asosida bölajak kimyo öqituvçilarida innovatsion faoliyatga içki motivatsiyani rivojlantiriş böyiça quyidagi yönalişlarni belgilaş mumkin: birinçidan, avtonomiya ehtiyojini qondiriş maqsadida talabalarga kimyo darsini loyihalaşda innovatsion metod va vositalarni mustaqil tanlaş imkoniyatini beriş; ikkinçidan, kompetentlik ehtiyojini qondiriş uçun mikrodarslar, virtual laboratoriya işlari va loyihaviy topşiriqlarni oddiydan murakkabga qarab taşkil etib, muvaffaqiyat tajribasini izçil ta’minlaş; uçinçidan, aloqadorlik ehtiyojini qondiriş uçun tengdoşlar bilan hamkorlikdagi pedagogik izlanişlar va tajriba almaşiş muhitini yaratiş; törtinçidan, baholaş tizimida natija bilan bir qatorda izlaniş jarayoni va taşabbuskorlikni ham rağbatlantiriş, xatolikni örganiş manbai sifatida qabul qiluvçi psixologik xavfsiz muhitni şakllantiriş. Mazkur yönalişlarning amalga oşirilişi taşqi motivlardan içki motivlarga ötişni ta’minlab, bölajak kimyo öqituvçilarida pedagogik yangiliklarga barqaror qiziqiş va ularni öz taşabbusi bilan qöllaş ehtiyojini şakllantiradi. Kelgusida talabalarning motivatsion komplekslarini K.Zamfir metodikasi (A.A.Rean modifikatsiyasi) asosida empirik örganiş tadqiqotning istiqbolli yönalişi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mölжalланган Янги Özbekistonning taraqqiët strategiyasi töğrisida”gi Farmoni // Qonunçilik maълumotlari milliy bazasi. – URL: ҳttps://lex.uz/docs/5841063.
2. Deci E.L., Ryan R.M. Intrinsic motivation and self-determination in human behavior. – New York: Plenum Press, 1985. – 371 p.
3. Ryan R.M., Deci E.L. Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation, social development, and well-being // American Psyçologist. – 2000. – Vol. 55, No. 1. – P. 68–78.
4. Bandura A. Self-efficacy: The exercise of control. – New York: W.H. Freeman, 1997. – 604 p.
5. Ильин Е.П. Мотиватsiя и мотивы. – СПб.: Питер, 2002. – 512 с.
6. Маркова А.К. Психология профессионализма. – М.: Знание, 1996. – 312 с.
7. Реан А.А., Бордовская Н.В., Розум С.И. Психология и педагогика. – СПб.: Питер, 2002. – 432 с.
8. Хуторской А.В. Педагогическая инноватика: учебное пособие. – М.: Академия, 2008. – 256 с.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

9. Davletşin M.G. Zamonaviy maktab öqituvçisining psixologiyasi. – Toşkent: Özbekiston, 1999. – 29 b.
10. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., Törayev A.B. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toşkent: Sano-standart, 2015. – 208 b.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.